© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

SHARQ ALLOMALARINING CHOLG‘USHUNOSLIK HAQIDAGI QARASHLARI TALABALARDA ESTETIK MADANIYAT VA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH MANBAI SIFATIDA

Samatova Dilnoza Salaidinovna
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23036669

Annotatsiya. Maqolada Sharq mutafakkirlarining musiqa va cholg‘u sozlari haqidagi ilmiy-estetik qarashlari oliy pedagogik ta’lim nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Jomiy, Marog‘iy va Darvishali Changiy asarlarida cholg‘uchilikka oid g‘oyalarning mazmuni yoritilgan. Bu merosning musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarida estetik tafakkurni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari (fanlararo integratsiya, axloqiy-estetik yaxlitlik, ijodiy faollik, milliy o‘zlikni anglash) asoslangan.

Kalit so‘zlar: Sharq allomalari, musiqiy-estetik meros, cholg‘ushunoslik, estetik tafakkur, cholg‘u ijrochiligi, ustoz-shogird an’anasi, musiqa ta’limi.

Аннотация. В статье с позиций высшего педагогического образования анализируются музыкально-эстетические и инструментоведческие взгляды мыслителей Востока. Раскрыто содержание идей об инструментальном исполнительстве в трудах Фараби, Ибн Сины, Урмави, Джами, Мараги и Дарвиша Али Чанги. Обоснованы педагогические возможности этого наследия в развитии эстетического мышления студентов музыкально-образовательного направления: межпредметная интеграция, нравственно-эстетическая целостность, творческая активность, осознание национальной идентичности.

Ключевые слова: мыслители Востока, музыкально-эстетическое наследие, инструментоведение, эстетическое мышление, инструментальное исполнительство, традиция «устод–шогирд», музыкальное образование.

Abstract. The article examines the musical-aesthetic and organological views of Eastern scholars from the standpoint of higher pedagogical education. It presents the ideas on instrumental performance found in the works of Farabi, Ibn Sina, Urmawi, Jami, Maraghi, and Darvish Ali Changi. The pedagogical potential of this heritage for developing aesthetic thinking in music education students is substantiated: interdisciplinary integration, moral-aesthetic unity, creative activity, and awareness of national identity.

Keywords: Eastern scholars, musical-aesthetic heritage, organology, aesthetic thinking, instrumental performance, master–apprentice tradition, music education.

Kirish. Bugungi ta’lim tizimi oldida yosh avlodni bilimli, ijodkor va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi turibdi. Bu vazifani hal etishda xalqning tarixiy-madaniy merosi, ayniqsa uning musiqiy-estetik qatlami ulkan tarbiyaviy kuchga ega. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida talaba-yoshlarni madaniyat va san’atga jalb etish, ularning estetik madaniyatini shakllantirish alohida vazifa sifatida belgilangan [1]. Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini takomillashtirishga qaratilgan qaror esa bu fan o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga yuksak talab qo‘yadi [2]. Demak, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi nafaqat yaxshi ijrochi, balki go‘zallikni chuqur anglaydigan, uni o‘quvchiga yetkaza oladigan estetik salohiyatli pedagog bo‘lishi lozim.

Shu ma’noda ajdodlarimiz ilmiy merosi tayyor manba vazifasini bajaradi. Sharq allomalari musiqani vaqt o‘tkazish vositasi emas, insonning ruhiyati, axloqi va tafakkuriga ta’sir etuvchi omil deb bilganlar. Ular

© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

cholg‘u sozlarining tuzilishi, sozlanishi va ijro imkoniyatlarini ham ilmiy asosda tavsiflab, nazariya bilan amaliyotni birlashtirganlar. Biroq bu meros musiqa ta’limi amaliyotida ko‘pincha tarixiy ma’lumot darajasida qolib, talabaning estetik tafakkurini o‘stirish vositasi sifatida yetarlicha ishlatilmaydi.

Tadqiqotning maqsadi Sharq allomalarining cholg‘uchilikka oid qarashlarini tahlil qilish va ularning bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida estetik tafakkurni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Asosiy qism. Estetik qarashlar Sharq mamlakatlarida juda qadim zamonlardan shakllana boshlagan va insoniyatning dastlabki ma’naviy boyligi hamda umuminsoniy nafosat olamining poydevorini yaratgan [3]. Qadimgi Misrda musiqachilar jamiyatda hurmatga sazovor bo‘lgan, ta’lim jarayonida sozandalik o‘rgatilgan, unda erkaklar bilan birga ayollar ham qatnashgan. Xitoy tafakkurida Konfutsiy qo‘shiq va musiqadagi ezgulik, axloqiy poklik va ma’naviy mazmunni yuksak baholagan; Hindistonda esa estetik g‘oyalar epik dostonlarda aks etib, musiqa ragalar tizimiga tayanuvchi murakkab an’anaga aylangan. Islom madaniyati ta’sirida bu qarashlar yana boyidi, "Sof birodarlar" oqimi vakillari musiqani ruhiy kamolot va go‘zallikka yetaklovchi vosita deb hisoblaganlar [3].

IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda estetik tafakkur yuqori bosqichga ko‘tarildi. Forobiy, Rudakiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Kaykovus kabi mutafakkirlar san’atning tarbiyaviy kuchini va insonning ma’naviy kamolini tadqiq etdilar. XIV–XVI asrlarda Amir Temur, Jomiy, Navoiy va Bobur davrida bu an’ana davom etdi: Temur saroyida sozanda va bastakorlar homiylik qilindi, Jomiy Forobiy qarashlarini rivojlantirib, musiqani ma’naviy ozuqa beruvchi go‘zal tovushlar haqidagi fan deb ta’rifladi, Navoiy esa go‘zallik va nafosat masalalarini insonning badiiy didi bilan bog‘lab yoritdi. Keyingi asrlarda Darvishali Changiy, XX asr boshida esa Hamza, Avloniy, Behbudiy va Fitrat kabi ma’rifatparvarlar bu yo‘nalishni o‘zbek milliy zaminida davom ettirdilar.

Forobiy. Uning "Musiqa haqida katta kitob" asari o‘rta asr Sharq musiqa nazariyasining eng muhim manbalaridan biri bo‘lib, ijrochilikni ikki yo‘nalishga — inson ovozi bilan ohang yaratish va cholg‘u vositasida ifodalashga ajratadi. Bu yondashuv musiqani nazariy hodisa emas, amaliy ijro bilan bog‘liq estetik jarayon sifatida ko‘rishni ko‘rsatadi [4]. Asarning ikkinchi qismi butunlay cholg‘ularga bag‘ishlangan: ud, tanbur, nay, surnay, rubob, chang, qonun, g‘ijjak va boshqa sozlarning tuzilishi, tovush xususiyati hamda ijro imkoniyatlari izchil bayon etilgan. Forobiy cholg‘ularning ijtimoiy vazifalariga, ya’ni jang, raqs, to‘y va bazmlarda qo‘llanishiga ham e’tibor qaratgan. U nafaqat nazariyotchi, balki o‘zi ham mohir ijrochi bo‘lgani uchun cholg‘ushunoslik fani asoschilaridan biri sanaladi.

Ibn Sino. "Kitob ash-shifo"ning musiqaga bag‘ishlangan bobida olim musiqa nazariyasi bilan bir qatorda cholg‘ular masalasini ham yoritgan [4]. U sozlarni guruhlarga ajratib, torli-mizrobli (barbat, tanbur, rubob), ochiq torli (chang, lira, arfa), kamonli (rabab) va puflama (nay, surnay) cholg‘ularni farqlagan hamda tasnifda sozlanish xususiyatini asosiy mezon qilib olgan. Bu ilmiy tizimlilik talabaga cholg‘uni faqat "chalinadigan asbob" sifatida emas, tuzilishi va tovush tabiatiga ko‘ra anglanadigan hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Urmaviy va Jomiy. Safiuddin Urmaviy mohir udchi, xonanda va bastakor sifatida ud bo‘yicha amaliy tajribasiga tayanib, lad (modus) tizimini mukammal ishlab chiqqan; uning asarida ud eng mashhur va zamonaviy cholg‘u deb ta’riflangan. Jomiy esa "Musiqa haqida risola"sida tovushlarning o‘zaro nisbati, intervallar tizimi va tovushqatorlarning shakllanish qonuniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilib, Sharq musiqa nazariyasini boyitgan [5].

Marog‘iy va Darvishali Changiy. Abduqodir Marog‘iy Samarqandda, Temur saroyida faoliyat yuritgan yirik musiqashunos bo‘lib, kamonli cholg‘ular (g‘ijjak, rubob), ularni tayyorlash texnologiyasi va tovush sifati haqida qimmatli ma’lumot qoldirgan: uning fikricha, ipak yoki paydan tayyorlangan torlar jez torlarga nisbatan yumshoq va nafis ohang beradi. Bu ma’lumotlar o‘sha davr cholg‘u yasash madaniyati va ijrochilik tajribasi yuqori darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. XVII asrda yashagan Darvishali Changiy esa chang ijrochisi va nazariyotchisi sifatida chang cholg‘usida yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti tor va yetti parda kerakligini, o‘sha davrda tanbur, chang, rubob, ud, qonun, qobuz va g‘ijjak eng keng tarqalgan sozlar bo‘lganini yozgan.

© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

Uning risolasida o‘nlab ijrochilarning nomlari ham qayd etilgan, bu esa musiqa madaniyatining ijrochilar jamoasi orqali rivojlanganini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalar cholg‘u ijrochiligi yakka ijodkorlar bilan cheklanmay, ustoz-shogird an’anasi orqali avloddan avlodga o‘tganini tasdiqlaydi. Masalan, Darvishali Changiyning chang ijrosidagi ustozi Amir Fatxiy bo‘lgan. Fitratning yozishicha, XVII asrda Abdullaxon davridan Imomqulixon hukmronligigacha bo‘lgan davrda Buxoro, Toshkent, Samarqand, Balx va boshqa markazlarda dutorchi, tanburchi, naychi, qo‘bizchi, g‘ijjakchi, qonunchi sifatida mashhur bo‘lgan ko‘plab ustalar faoliyat yuritgan [6]. Bobur Navoiyning ud, nay, g‘ijjak va chang ijrochilariga homiylik qilganini qayd etib, Qul Muhammad, Shodi, Husayn Uddiy kabi sozandalar nomini keltiradi. Temuriylar davrida musiqa boshqa xalqlarning ohang an’analari bilan uyg‘unlashib rivojlangani ham manbalarda ta’kidlanadi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sharq allomalarining cholg‘uchilik va musiqa nazariyasiga oid asarlari faqat tarixiy manba emas, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi estetik tafakkurini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasidir. Forobiy va Ibn Sinoning cholg‘ularni ilmiy tasnifi, Urmaviy va Jomiyning nazariy qarashlari, Marog‘iy hamda Darvishali Changiyning amaliy ma’lumotlari talabaga cholg‘uni chuqur anglash uchun asos beradi. Ustoz-shogird an’anasi esa ijrochilik madaniyatining uzluksizligini ko‘rsatadi. Shu bois oliy pedagogik ta’limda bu merosni fanlararo integratsiya, axloqiy-estetik yaxlitlik, ijodiy faollik va milliy qadriyatlarga tayanish tamoyillari asosida cholg‘u ijrochiligi mashg‘ulotlariga tizimli joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 15-noyabrdagi «Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-391-son Qarori.
3. Umarov E. Estetika asoslari: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: «Sharq», 2004. – 128 b.
4. Nazarov A. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. – 131 b.
5. Rahimov Sh., Saidov A. Sharq allomalarining musiqiy qarashlari. – T.: Musiqa nashriyoti, 2011.
6. Abdurauf Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., 1993. – B. 16.
7. Sobirov N.X. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida sozandalik mahoratini rivojlantirish metodikasi: PhD diss. – Toshkent, 2025. – 157 b.